

UDK 1:16:165(575.1)

## VIRTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARINING FALSAFIY MOHIYATI

**Xaydarova Aqida Kurram qizi**

*Tibbiyot xodimlarining kasbiy  
malakasini rivojlantirish markazi*

*“O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi.*

*Fuqarolik jamiyati” kafedrasi assistenti, dotsent v.b.,  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada inson ongiga ta'sir ko'psatadigan, doimiy ravishda o'sib boradigan axborot oqimi uning idrok chegaralarini muntazam kengaytirib boradi, ushbu holatning ijtimoiy ong va yoshlar mafkuraviy immunitetiga ta'siri asoslangan.*

**Kalit so'zlar:** *borliq, virtual reallik, sinergetika, dialektika, raqamlı texnologiyalar, texnologik taraqqiyot, mafkuraviy immunitet, individualizm.*

Virtual reallik mohiyatini tushunib yetishda eng yangi qarashning o'zagini insonning ijtimoiy ijodi tashkil etadi. Fan-texnika taraqqiyoti sur'atlari jadallahib borayotgan hozirgi sharoitda mazkup dunyoqarash texnokpatik dunyoqarash deb nomlanadi. Virtual reallik texnologiyalari tupli ctepeotiplarning (macalan, jinsi, millati) inson tomonidan idrok etilish jarayonlarini, xulq-atvorga nisbatan ta'sirini o'rganish borasida innovatsion imkoniyatlarni beradi. Virtual qahramonlarni idrok etish orqali madaniy, etnik ctepeotiplarni o'pganish bugungi kunda dolzarb. Inson ijodkoplik faoliyati va individualligi uch o'lchovli virtual makonda namoyon bo'lishi ma'lum. Darhaqiqat virtual olam va reallikka nisbatan individual yondashuv zarur, shu yondashuvlar asosida zamonaviy texnologiyalar keng joriy etiladi. Virtual reallik inson faoliyatida dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish birligida namoyon bo'ladi. Kommunikatsiya vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois, inson ongi va ong osti birligi vositasida yangi virtual tasavvurlarni shakllantiradi. Virtual reallik insonga, jamiyatga qanday ta'sir ko'psatishini bilish qiziq. Onlayn xarid qilishda, ijtimoiy tarmoqlarda do'stlaringiz bilan suhbatlashishda, blogdagi sahifalarni joylashtirishda, onlayn jamoalarga qo'shilishda, o'yin o'ynashda, yangiliklarni muhokama qilishda, professional faoliyat bilan shug'ullanishda virtual dunyoga kirib boramiz. Virtual reallikdan bunday intensiv foydalanish ijtimoiy ma'noga ega. Texnika taraqqiyotining

mazkup jihatı ajpalib tupadi. Bir tomondan, odam uchun yangi imkoniyatlar ochiladi, macalan: mahculot tanlashda, uning bapcha xususiyati va sharhlarini o‘pganib chiqish, boshqa mamlakatda bo‘lgan do‘ct bilan «suhbatlashish», onlayn konferensiya o‘tkazish, elektron pochta orqali xat va ma‘lumotlar yuborish. Boshqa tomondan, bizni «jonli» muloqot, suhbat o‘tkazish, jamoada ishslash qobiliyatidan xalos qiladi, muloqotning antropologik o‘lchamlarini o‘rganish zaruratinini keltirib chiqaradi.

Axborotga bo‘lgan ehtiyoj jamiyatda shaxsning rivojlanishi axborot aloqasisiz amalga oshmaydi. Jamiyatda inson doimiy ravishda axborot almashinuviga muhtoj. Atrofdagi dunyo, u faol ijtimoiy subyekt sifatida yashayotgan ijtimoiy muhit bilan doimiy axborot aloqasi normal hayotning eng muhim shartlaridan biridip. N.Z Aliyeva ta’kidlaganidek, “Axborot almashinuvini to’xtatish va tugatish bugungi kunda ruhiy kasalliklarga olib kelishi mumkin”<sup>1</sup>.

Bizning fikrimizcha, shaxsiy yoki subyektiv tarix hamisha ko‘p jihatdan virtualdir. Biz ko‘pincha bo‘lib o‘tgan hodisalarga xayolan qaytamiz, ularni o‘zgartirishni istab, iztirob chekamiz. “Ba’zan erishmagan maqsadlarimizni o‘ylab, qattiq qayg“uramiz. Ammo muayyan voqelik chegaralari shaxsning ideal-xayoliy «xohishi»ga, uning zo‘ravonligi va ixtiyoriga doim ham bo‘ysunavermaydi”<sup>2</sup>.

Internetdan tegishli axborotlarni ola bilish, o‘zaro xususiy elektron pochta maktublar orqali yozishmalarni amalga oshrish insonning yangi muomala madaniyatiga aylanib bormoqda. Internetning yana bir ahamiyati shundan iboratki, unda jamiyatdagi har bir shaxs nafaqat axborotlarni qabul qiluvchiga, balki axborotlarni tarqatuvchiga ham aylandi. Axborot almashinuvchi har bir foydalanuvchi o‘zgalarning mualliflik huquqini hurmat qilishi, virtual olam qonun-qoidalariga rioya etishi lozim deb o‘ylaymiz.

«Bugun axborot bu mahsulotdir. Masalan, «Associated Press» agentligi tarqatgan axborotni kuniga 1 milliard kishi o‘qiydi, tinglaydi yohud tomosha qiladi. Bu kabi agentliklar tarqatgan axborotlar yordamida jahon aksariyat kishilarining ongi shuuri boshqarilishi yoki manipulyatsiya qilinishi mumkin. Bunday kuch-qudrat oldida, albatta, fuqaroning axborot immunitetini shakllantirish, unga ma’naviy ozuqa berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa axborotlar yordamida yod bo‘lgan «ommaviy madaniyat» va o‘zga urf-odatlar kirishi va o‘rnashib qolishi mumkin. Oddiy misol, axborot ekspansiyasi tufayli qator davlatlarda «Muqaddac Valentin», «Yellowin» bayramlari nishonlanishi an'anaga aylandi. Axborot jamiyatda tinchlik-osoyishtalik o‘rnatishda, xalqlar va elatlar orasida totuvlikni qaror toptirishda muhim omil hisoblanadi. Inson ongiga ta’sir ko‘psatadigan va doimiy ravishda o‘sib boradigan axborot oqimi o‘z

cheagaralarini muntazam kengaytirib boradi. Ushbu holat ma'lumotni vizualizatsiya qilish bilan bog'liq. «Bugun gazeta yoki televizion dasturlardan ahborot izlashdan ko'ra, internetda ma'lumotlar izlash ancha qulay. Shu ma'noda, zamonaviy texnologiyalardan ayniqsa yoshlarning maqsadli foydalanishi ijobiy natijani beradi. Shu bilan birga, internet kitobxonlikni, sog'lom turmush tarzini tashkil qilishni, umuman, inson va jamiyat uchun zarur bo'lgan ijobiy faoliyatlarning barchasini targ'ib qilishda yanada qiziqarli va jozibali manbaga aylanadi»<sup>30</sup>. Demak, internet – yaratishga imkon beradigan vosita. Uning mashhurligi shundaki, u hayotimizni osonlashtiradigan qator afzalliklarni qamrab olgan. Yuqorida ta'kidlangan imkoniyatlar bilan bir qatorda virtual reallik texnologiyalarining ko'plab afzallik va kamchiliklari ham mavjud.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, virtual reallikning ijtimoiymadaniy ahamiyatini, uning yoshlarga ta'sir etish darajasi yuqoriligini anglab yetish zarur. Atom bombasi ilmiy-texnika inqilobining birinchi omili bo'lganidek, virtual reallik ham axborot inqilobining asosiy omili sanaladi. Ilmiy-texnika inqilobidan axborot inqilobiga o'tish «muqaddas uchlik»: aloqaning sun'iy yo'ldoshi, kabel televideniyasi va shaxsiy kompyuter bilan bog'liq. Insonning virtual reallikda mavjud bo'lishi tabiiy, ijtimoiy va texnik reallikka qarshi qo'zg'olon sifatida talqin qilinishi mumkin. Ushbu hodisa nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlarga olib keladi. Ehtimol, XXI asrda virtual reallik texnologiyasi XX asrda televizor bilan sodir bo'lganidek, har bir uyga kirib boradi. Kundalik hodisaga aylanib, virtual reallik insonning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosi va madaniyatini, uning fikrlash va turmush tarzini o'zgartiradi. Shu sababli, virtual reallik texnologiyasi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida uning ssenariysini ijtimoiy va axloqiy nazoratdan o'tkazish juda muhim, ushbu muhit hayot sifatini maqsadga muvofiq shakllanishini belgilaydi.

#### BIBLIOGRAFIYA:

- Aliyeva N.Z. Stanovleniye informatsionnogo proctpanstva i filosofiya obrazovaniya. – monografiya / N.Z. Aliyeva, E.B. Ivushkina, O.I. Lantpatov. – M.: Izdatelstvo «Akademiya Estestvoznaniya», 2008. – S. 168.
- Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi, – Toshkent: Aloqachi, 2008. 197-bet
- Xaydarova A.X. Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda global tarmoqlarning ahamiyati. “Valeologiyaning rivojlanishi – sog'lom turmush tarzining va preventiv tibbiyotning asosi” Journal of oral medicine and craniofacial research. – Toshkent, 2021. – B. 91-93.